



O'ZMU XABARLARI

ВЕСТИИК НУУЗ

АСТА NUUZ

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

**JURNAL
1997 YILDAN
CHIQA
BOSHLAGAN**

2026

8

**Ijtimoiy-
gumanitar
fanlar turkumi**

Bosh muharrir:

MADJIDOV I.U. – t.f.d., professor.

Bosh muharrir o'rinbosari:

ERGASHOV Y.S. – f-m.f.d., professor.

Tahrir hay'ati:

Sagdullayev A.S. – t.f.d., akademik (O'zbekiston)

Suleymanov R.X. – t.f.d., prof. (O'zbekiston)

Murtazayeva R.H. – t.f.d., prof. (O'zbekiston)

Musayev N.U. – t.f.d., prof. (O'zbekiston)

Urakov D.J. – t.f.d., prof. (O'zbekiston)

Xolikulov A.B. – t.f.d., prof. (O'zbekiston)

Zuyev A.S. – t.f.d., prof. (Rossiya)

Jesus Gil Fuensanta. – t.f.d., prof. (Ispaniya)

K.Yildirim. – t.f.d., prof. (Turkiya)

Muxamedova D.G. – psix.f.d., prof. (O'zbekiston)

Safayev N.S. – psix.f.d., prof. (O'zbekiston)

Rasulov A.I. – psix.f.d., prof. (O'zbekiston)

Tashimova F.S. – psix.f.d., prof. (Qozog'iston)

Madayeva Sh.O. – f.f.d., prof. (O'zbekiston)

Nishanova O.Dj. – f.f.d., prof. (O'zbekiston)

To'xtayev X.P. – f.f.d., prof. (O'zbekiston)

Sobirova U.F. – sots.f.d., prof. (O'zbekiston)

Xudaykulov H.J. – ped.fan.d., prof. (O'zbekiston)

Miroslav Ballay – PhD, prof. (Slovakiya)

Shirinova R.X. – fil.f.d., professor. (O'zbekiston)

Siddiqova I.A. – fil.f.d., prof. (O'zbekiston)

Sadullayeva N.A. – fil.f.d., prof. (O'zbekiston)

Arustamyan Y.Y. – fil.f.d., prof. (O'zbekiston)

Markov A.V. – fil.f.d., prof. (Rossiya)

Boltaboyev H. – fil.f.d., prof. (O'zbekiston)

Abdurahmonova N.Z. – fil.f.d., prof. (O'zbekiston)

Pardayev Z.A. – fil.f.f.d., dots. (O'zbekiston)

Mas'ul kotib: **PARDAYEV Z.A.**

TOSHKENT – 2026

MUNDARIJA

Tarix

Ametov T. Qoraqalpog'iston respublikasi qonun hujjatlarini modernizatsiyalashning kontseptual asoslari.....	5
Askarxodjayev Y. 1930-yillar boshlarida O'zbekiston SSRda ta'lim tizimining "agronomiyalashuvi" va boshlang'ich maktab programmalari tahlili (1931-yilgi "Maorif va o'qituvchi" jurnali materiallari asosida).....	8
Ayupov O. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda davlat boshqaruvi tizimining modernizatsiya jarayonlari.....	11
Buxorov J. Dehqonobod tumani aholisining 1941-1945-yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli	13
Duschanov R. O'zbekiston SSR budjetida aylanma soliqning o'rni (1930-1945 y.)	15
Inayatov J. Sovet hokimiyati davrida fotografiyaning jamiyat hayotidagi o'rni va vazifalari	18
Isayev O. Oziq-ovqat sanoati tarixini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari xususida ba'zi mulohazalar	21
Musoyev U. Turkkomstaris faoliyatida madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish masalalari (1920–1924-yillar)	24
Nematov I. O'zMA fondlarida O'zbekiston ipakchilik savdosi va sanoati tarixini yoritilishi (1867–1941-yillar)	27
Nishonov A., Kimsanova R. Farg'ona vodiysi tarixining rus tarixshunosligida yoritilishi	31
Olimjonov X. O'zbekiston SSRda kutubxona ishi tarixi (Ikkinchi jahon urushi yillari)	34
Radjabova N. Bolalar musiqa va san'at maktablari kuy va qo'shiqchilik san'atini yuksaltirishning dastlabki o'quv dargohlari (Navoiy viloyati misolida)	37
Rasulova D. Chor Rossiyasi davrida Surxon-Sherobod vohasining tarixiy ahamiyati.....	40
Tasheva Sh., Temirova Ch. Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotida janubiy viloyatlar qishloq ziyolilarining o'rni va ijtimoiy faolligi.....	43
Xaynazarov B., Qudratillayev P. Temuriylar davrida ijtimoiy himoya	46
Yusupov M. Kino hujjatlarining tarkibiy tahlili	49
Yaxshiyev A. O'zbekistonda 1929-yilgi alifbo islohoti: maqsad, natija va oqibatlar	52

Falsafa. Pedagogika. Psixologiya. Metodika. Sotsiologiya. Siyosiy fanlar. Islomshunoslik

Abdullayev N., Shamayev X., Kosbergenov E. Значение теоремы гаусса в преподавании специальных дисциплин	55
Abdullayeva D. Raqamli ta'lim vositalari asosida bo'lajak muhandislarning kasbiy komponentligini rivojlantirish metodikasi	58
Abdullayeva M. Texnik fanlarni o'qitishda kognitiv yuklama muhandisligi asosida adaptiv o'qitish metodikasini ishlab chiqish.....	62
Abdusalomov O. O'zbekistonda aholini baxtlik darajasini oshirish omillari va yo'llari	65
Adilov S. Sport kurashida musobaqa faoliyati operativ tahlili asosida sportchilarning texnik-taktik va koordinatsion tayyorgarligini nazorat qilish.....	68
Alimov A. Husayn Voiz Koshifiy asarlarida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining falsafiy talqini	71
Alimova E. Повышение эффективности преподавания биофизики на основе использования цифровых технологий	74
Baxriddinov O. Mustaqillik yillarida navoiy viloyatida yoshlar tadbirkorligining rivojlanishi va uning bandlikni ta'minlashdagi o'rni	77
Bekova Sh. Ota-ona va farzandlar o'rtasida kommunikativ kompetentlik rivojlanishining psixologik jihatlari	80
Биксалиева Р., Шодиева Т. Методологические подходы к изучению неологизмов со значением лица в современном русском языке.....	83
Boboyeva M. Bolalarga nisbatan zo'ravonlikning ijtimoiy falsafiy tahlillari.....	87
Boymuminova M. Maktabgacha yoshdagi bolalar aqliy rivojlanishida o'yinning ahamiyati	90
Boymurodov O. Harbiy ta'lim muassasalarida kursantlarning o'qish jarayonida harbiy-kasbiy kompetentligini shakllantirish	93
Dadaboyeva O. Эффективные средства подготовки юных дзюдоисток на этапе начальной специализации	97
Djumanazarova N., Namozova Z. Bo'lajak matematika o'qituvchilarida matematik tahlil faniga oid kompetentliklarni rivojlantirishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	100
Donayev N. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda bulutli texnologiya muhitlaridan foydalanish samaradorligi	103
Jamolova M. "Z" avlod yosh o'qituvchilarida emotsional intellekt va kasbiy o'zlikni anglashning jins va yosh tafovutlari tahlili.....	106
Jo'raboyeva D. O'zbekistonda ayollar ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishda gender siyosatning ijtimoiy ahamiyati	110
Jurayeva H., Abdullayeva F. Keksalik tushunchasining demografik, sotsiologik va ijtimoiy mazmuni.....	113
Zaitov E. Institutsional transformatsiya sharoitida o'zini o'zi boshqarish institutlari rivoji.....	116
Zayniddinov F., Zokirov O. Kosmik apparatlar misolida falsafiy mulohaza	118
Zoxidov I. Texnika yo'nalishlarida dual ta'limni tizimli tashkil etish orqali ta'lim sifatini oshirish	121
Ibragimova F. Oliy ta'limda talabalarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmasini rivojlantirishda konstruktivistik yondashuvining qo'llanilishi	124
Ibroximova S. 8-sinf adabiyot darslarida modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish metodikasi	127
Ismatullayeva S. Dzyudochi-qizlarda texnik va tezkor-kuch tayyorgarligi asimmetriyasini tahlil qilish hamda musobaqa faoliyati samaradorligini oshirish	130
Israilova Sh. Shaxs axloqiy idealining ijtimoiy institutlar va me'yorlar bilan dialektik munosabati	134
Yo'ldasheva M. Boshlang'ich sinflarda rus tilini o'qitishning pedagogik va psixologik xususiyatlari	137

Yo'ldiyeva Sh. Fasilitatsion yondashuv va raqamli ta'lim platformalari orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining iqtisodiy va psixologik kompetentligini rivojlantirish	140
Кудратуллаева Р. Рефлексивная культура как ресурс готовности психологов-консультантов к профессиональной деятельности	143
Kurbanov H. Texnik-muhandislik oliy ta'lim tashkilotlari talabalari uchun fizikani ixtisoslik fanlari bilan integratsiyasi asosida o'qitish metodikasi	146
Qayumov X. Ayollar kurashi sport turi bo'yicha Qirg'izistonning Bishkek shahrida o'tkazilgan Osiyo chempionatining tahlili	149
Qayumova O. O'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish.....	152
Qayumova Sh. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishning metodik asoslari	156
Qosimov O. Dezinformatsiyaning ijtimoiy qiyofasi: falsafiy tahlil.....	159
Qurbonnazarova Sh. Bo'lajak muhandislarning kasbiy imidjini shakllantirish mazmuni	162
Qo'chqorova I. Xorijda tahsil olgan yosh mutaxassislar orqali bilim transferi va ularni davlat boshqaruvi tizimiga integratsiyalash: O'zbekiston tajribasi	165
Mamanova S. Turizm yo'nalishi o'quvchilarida umummadaniy kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan didaktik ta'minotni takomillashtirishning pedagogik asoslari	169
Mamatqulova F. Kam ta'minlangan oilalar bilan ishlashda ilg'or xorij tajribalari tahlili va O'zbekistonga tatbiq etish imkoniyatlari	172
Mamirova F. Befarand oilalarda shaxslararo munosabatlarning gender xususiyatlari	175
Maxmudov K. Yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda xavfsizlik sohasidagi "Xayot xavfsizligi asoslari" qoidalarining o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari	178
Muzaffarova N. Texnika fanlarini o'qitishda ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari integratsiyasini dars jadvali orqali tashkil etish metodikasi	181
Mullaboyeva N. Texnik-muhandislarda kasbiy-kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar	184
Muradov U. Polilogik nutq orqali talabalarining kommunikativ faolligini oshirishning metodik imkoniyatlari	187
Murodova G. Zamonaviy psixologiyada koping strategiyalar tushunchasi va metodologik yondashuvlar	190
Nizamova M., Istamova D. Afg'onistonning O'zbekistonga geostrategik ta'siri: xavfsizlik tahdidlari va geoiqtisodiy imkoniyatlar tahlili.....	193
Nuriddinova H. Teaching english collocations to primary school learners (3 rd -4 th grade)	196
Nurmatov A. Jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplash masalasi. 1-qism (Mullifning sun'iy intellekt dasturi asosida xususiy korxona faoliyatini tiklash misolida)	198
Nurmatov Z. Talabalarining dasturlashga oid kasbiy kompetentligini shakllantirish mazmunini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida takomillashtirish zarurati	201
Нассер О. Динамика двусторонних отношений королевства Саудовской Аравии и Китайской народной республики	204
Ochilova F. Pedagogika fanida "Tanqidiy fikrlash" tushunchasining genezisi va evolyutsion rivojlanishi	207
Ravshanov U. Global axborot makoni sharoitida ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning pedagogik asoslari.....	210
Rasulov S. O'zbekistonda davlat boshqaruvida xalq ishtirokining ijtimoiy-falsafiy paradigmasi	213
Rasulova D. Ingliz tili ta'limida raqamli hikoyachilik (digital storytelling) texnologiyasining didaktik imkoniyatlari	216
Rahimboyeva D. O'zbekistonning global ekologik muammolarni bartaraf etish bo'yicha BMT doirasidagi tashabbuslari.....	218
Ro'zimurodov S. O'zbekistonda oilaviy iqtisodiy tafakkur madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-institutsional asoslari.....	221
Ruzmetova Z. Texnologiya fani o'qituvchilarining kasbiy-ijodiy kompetensiyalarini integrativ yondashuv asosida rivojlantirishning muhim omillari	224
Rustamov S. Huquqiy nigilizmni bartaraf etish va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishda huquqiy madaniyatning roli	227
Saliyeva N. Globallashuv jarayonlarining jamiyat ideosferasiga ta'siri va rivojlanish yo'nalishlari.....	230
Sa'dullayeva F. Tasviriy san'at ta'limida future-tech texnologiyalaridan foydalanishning metodik modeli	233
Sodiqova D. Инновационный подход к обучению студентов принципам работы приборов для регистрации биопотенциалов на примере ЭКГ, ЭЭГ, ЭМГ, ЭРГ	237
Soliyev A. "Raqamli huquqiy madaniyat" tushunchasi: metodologik yondashuvlar va yangi paradigmaning shakllanishi	240
Suvonqulov H. Abdurahmon Toshkandiy faoliyatida ma'rifatparvarlik va islohotchilik masalalari	243
Tangatarova S. O'quvchilarni o'zbek tilida ravon gapirish ko'nikmasini rivojlantirish mazmuni	246
Tasheva Sh., Temirova Ch. Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotida janubiy viloyatlar qishloq ziyolilarining o'rni va ijtimoiy faolligi	249
Tulishov G'. Raqamli transformatsiyani o'qitishda bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish masalalari	252
To'xtayev H. Agrar madaniyat shakllantirishining evolyusiyasi va rivojlanish omillari	255
Ubaydova V. Naqshbandiya ta'limotining shaxs tarbiyasi, ma'naviy kamolot va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishdagi didaktik imkoniyatlari	258

Urakova N. Talaba yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muzeylarning roli	262
Usmonov S. Raqamli jamiyatda kiberzo'ravonlikning ijtimoiy-falsafiy mohiyati va unga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish yo'llari	265
Xayitov J. Resotsializatsiya samaradorligini baholashning kompleks diagnostika vositalari	268
Xolyigitova N. Yosh kadrlar karyerasini rivojlantirishda psixologik qo'llab-quvvatlash amaliyoti.....	271
Xudonazarov I. Mediamadaniyat ijtimoiy voqelikni transformatsiya qiluvchi fenomen sifatida	274
Hakimova L. Психологические особенности проявления адаптивности авиадиспетчеров в концепции Ю.К. Стрелкова	277
Hasanova X. Davlat fuqarolik xizmatchilarining ijtimoiy imidjini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining o'rni	280
Shamshimetov T. Talaba-yoshlarda huquqiy madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy zaruriyati.....	283
Sharipova S., Burzu S. "Kreativlik – pedagogik ijodkorlik asosi" modulini o'qitish pedagogik muammo sifatida.....	286
Evatov S. Markaziy Osiyoda tasavvuf ta'limotining shakllanishida diniy-falsafiy qarashlar	288
Ernazarova R. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar harakat faolligini rivojlantirishning pedagogik asoslari	291
Yuldashev Y. Jamoatchilik nazorati fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarida ijtimoiy muloqotni amalga oshirishda ijtimoiy texnologiya sifatida	294

Filologiya

Abdullayeva D. Abduqayum Yo'ldoshev hikoyalarida ota obrazining ijtimoiy-psixologik talqini va mahorat masalasi	297
Abdullayeva N. Hozirgi mandarin xitoy tilida fonologik tizim va uning xususiyatlari	300
Авлакулов Я. Ономастическая система узбекского языка	302
Allayarova Z., Bahromova M. The poetic function of nature imagery in Ernest Hemingway and Tog'ay Murod's works	305
Ahmedova M., Zavqiyeveva M. Linguistic and stylistic features of the self-help genre in XX century american literature (on the example of Dale Carnegie's how to win friends and influence people).....	307
Baratova N. Qanotli so'zlarning semantik va janriy transformatsiyasi haqida (Ezop masallari asosida)	310
Bahodirova G. Terminologik qarashlarning tarixiy evolyutsiyasi: klassik nazariyalardan kognitiv va kommunikativ yondashuvlarga o'tish.....	313
Jumaniyozov B. O'zbek xalq og'zaki ijodida obrazlar tipologiyasi.....	316
Ismoiljonova N. Kinoya (ironiya, sarkazm)ning ingliz va o'zbek tilshunosligidagi pragmatik tabiati	319
Ishankulova N. Nemis tilida chegaralangan fe'llar bilan preterit shaklining semantik xususiyatlari	322
Kurbaniyazova M. Ingliz va qoraqalpoq adabiy tafakkurida gastronomik konseptlarning verbal ifodasi	325
Kurbanova M., Nizomova D. O'zbek ayollar nutqiy etiketida xushmuomalalik tamoyilining ifodalanishi	328
Mirakhmedova Z. G'afur G'ulom va Jerom K. Jerom asarlarida evfemizmlarning lingvokulturologik mohiyati	331
Rixsiyeva A. "Ko'ngil" komponentli frazeologizmlarda metaforik modellar va obrazli semantika	334
Sarbarova D., Normurodova V. Sifatlarning she'riy matnda ifodalanishidagi o'ziga xosliklar	337
Sulaymonov B. Lug'at maqolada yozuv formati, punktuatsion belgilar hamda leksikografik markerlarning o'rni	340
Toshquvvatov X. O'zbek badiiy matnlarida "hayrat" fe'llari: semantik va pragmatik tahlil.....	343
Usmonova L. Siyosiy diskursda lingvokulturologik birliklarning ifodalanishi	346
Xolbutayev G'. O'zbek va rus latifalarining poetik va tematik xususiyatlari	349
Xudoyorova Sh., Bahodirova G. Raqamli va internet texnologiyalarining til rivojlanishiga ta'siri	353
Xusainova X. O'zbek va nemis tillarida so'z turkumlarini tasniflashning kategorial mezonlari	356
Sharipov F. Theoretical foundations of speech segment dissociation in discourse	359
Shodmonova G. Intercultural pragmatic features of english communication in uzbek tourism industry.....	362



UDK: 378.091.3:028

Shoxsanam QAYUMOVA,

Doktorant, Guliston davlat universiteti

Postal code: Guliston 120204, Uzbekistan, Email: shoxsanamkayumova0523@gmail.com, ORCID ID 0009-0007-8909-550X

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA O'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinif o'qituvchilarida o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishning metodik asoslari ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan yoritilgan. Tadqiqotda o'qish savodxonligini rivojlantirish kompetensiyasi bo'lajak pedagogning nazariy bilimlari, metodik ko'nikmalari, amaliy faoliyati va refleksiv tajribasi birligida namoyon bo'ladigan integrativ kasbiy sifat sifatida talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: bo'lajak boshlang'ich sinif o'qituvchisi, o'qish savodxonligi, metodik asoslar, kompetensiya, metodik tayyorgarlik, matn bilan ishlash, refleksiya, diagnostika, pedagogik amaliyot, dars loyihalash.

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR FORMING THE COMPETENCE OF DEVELOPING READING LITERACY IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Annotation

This article examines, from a scientific and pedagogical perspective, the methodological foundations for forming the competence of developing pupils' reading literacy in future primary school teachers. In the study, the competence to develop reading literacy is interpreted as an integrative professional quality manifested through the unity of a future teacher's theoretical knowledge, methodological skills, practical activity, and reflective experience.

Keywords: future primary school teacher, reading literacy, methodological foundations, competence, methodological training, working with text, reflection, diagnostics, pedagogical practice, lesson design.

МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИИ ПО РАЗВИТИЮ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация

В данной статье с научно-педагогической точки зрения освещаются методические основы формирования у будущих учителей начальных классов компетенции по развитию читательской грамотности учащихся. В исследовании компетенция по развитию читательской грамотности трактуется как интегративное профессиональное качество, проявляющееся в единстве теоретических знаний, методических умений, практической деятельности и рефлексивного опыта будущего педагога.

Ключевые слова: будущий учитель начальных классов, читательская грамотность, методические основы, компетенция, методическая подготовка, работа с текстом, рефлексия, диагностика, педагогическая практика, проектирование урока.

Bugungi ta'lim tizimida boshlang'ich ta'limning sifati ko'p jihatdan o'quvchilarda o'qish savodxonligini shakllantirish darajasi bilan belgilanadi. O'qish savodxonligi o'quvchining nafaqat matnni ravon o'qishi, balki uni tushunishi, tahlil qilishi, mazmunidan xulosa chiqarishi, axborotni baholashi va uni turli ta'limiy vaziyatlarda qo'llay olishini ham anglatadi. Shu bois bo'lajak boshlang'ich sinif o'qituvchilarini tayyorlashda aynan o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishga doir kompetensiyani shakllantirish masalasi alohida metodik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni [1]da ta'lim mazmuni va sifati davlat talablari asosida tashkil etilishi belgilangan bo'lsa, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida pedagog kadrlarning kasbiy salohiyatini oshirish va ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish ustuvor vazifa sifatida ko'rsatilgan.

Shu ma'noda bo'lajak boshlang'ich sinif o'qituvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishning metodik asoslarini aniqlash nazariy va amaliy jihatdan dolzarbdir. Mazkur masala faqat alohida metodlarni sanab o'tish bilan cheklanmaydi; u maqsad, mazmun, tamoyil, metod, vosita, shakl, bosqich va natijalar birligida ko'rilishi lozim. "Xorijiy tadqiqotlarda bo'lajak o'qituvchilarning o'qish strategiyalaridan foydalanishi

ularning kelajakdagi pedagogik faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan"[2]. Shuningdek, o'qish savodxonligini shakllantirish bo'yicha tadqiqotlarda bo'lajak pedagoglarning nazariy tayyorgarligi bilan bir qatorda amaliy va refleksiv tayyorgarligini ham rivojlantirish zarurligi asoslanadi.

Xorijiy adabiyotlarda o'qish savodxonligi masalasi, avvalo, aniq konseptual ta'rif va baholash doiralari bilan ajralib turadi. OECD materiallarida reading literacy matnni tushunish, undan foydalanish, baholash va u haqda refleksiya qilish orqali shaxsiy maqsadlarga erishish, bilim va salohiyatni rivojlantirish hamda jamiyat hayotida ishtirok etish bilan bog'lanadi. IEA/PIRLS doirasida esa o'qish savodxonligi ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega yozma matn shakllarini anglash va ulardan foydalanish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Bu ikki yondashuvning umumiy nuqtasi shundaki, ikkalasida ham o'qish savodxonligi texnik o'qishdan kengroq, funksional va ma'noga yo'naltirilgan kompetensiya sifatida ko'riladi[5].

Mahalliy tadqiqotlarda o'qish savodxonligi masalasi, asosan, PIRLS xalqaro baholash dasturi talablari bilan uyg'un holda metodik nuqtai nazardan yoritib kelinmoqda. Xususan:

S.K.Hasanova tadqiqotlarida ona tili va o'qish savodxonligi darslarida PIRLS formatidagi hikoya va matnlardan foydalanish orqali o'quvchilarni xalqaro baholashga bosqichma-bosqich tayyorlashning metodik shart-

sharoitlari ochib beriladi. Muallif o'quvchilarda matnni tushunish, mazmunni anglash, xulosa chiqarish hamda matnga munosabat bildirish ko'nikmalarini shakllantirishda xalqaro topshiriqlarning didaktik imkoniyatlarini ko'rsatadi[5].

G.A.Ahmadaliyeva esa o'z ishlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS xalqaro baholash nazoratiga tayyorlash metodikasiga alohida urg'u berib, o'qish topshiriqlarini tanlash, ulardan foydalanish ketma-ketligi va baholash mezonlarini takomillashtirish masalalarini tahlil qiladi[6].

G.E.Saidovanning maqolalarida boshlang'ich ta'lim jarayonida xalqaro baholash standartlariga mos o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning metodik asoslari yoritilib, topshiriqlarning mazmunini, mantiqiy va kompetensiyaviy yo'nalishlari tavsiflanadi[7].

V.A.Choriyeva tadqiqotlarida esa matn tahlili, ochiq va yopiq turdagi savollar, mantiqiy fikrlashga undovchi topshiriqlar asosida o'quvchilarning nutqiy faolligi va tushunib o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish usullari ko'rib chiqiladi[8].

Mazkur tadqiqotlar o'qish savodxonligini rivojlantirishning amaliy-metodik asoslarini boyitishda muhim ahamiyat kasb etsa-da, ularda muammo ko'proq alohida topshiriq, usul yoki tayyorlov mexanizmlari doirasida tahlil etilgan. Shu bois o'qish savodxonligini bo'lajak boshlang'ich

sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligi, kasbiy kompetensiyasi, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va didaktik tizim bilan uzviy bog'liq holda yaxlit tadqiq etish zarurati saqlanib qolmoqda.

Yana bir mahalliy yo'nalish boshlang'ich sinf "O'qish savodxonligi" darslarida kommunikativlik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Xususan, M.Mirzoyevaga ko'ra, o'qish savodxonligi darslarini faqat matn mazmunini aytib berish emas, balki muloqot, fikr bildirish va hamkorlik bilan bog'lash lozimligini bildiradi[9].

Shunday qilib, xorijiy manbalar o'qish savodxonligini chuqur konseptual doirada, mahalliy manbalar esa ko'proq metodik-amaliy doirada yoritadi. Ushbu maqolaning yangiligi ana shu ikki yo'nalishni birlashtirib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashning yaxlit didaktik mexanizmlarini markazga qo'yishidir.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashga oid zamonaviy tadqiqotlarda ham o'qish savodxonligi kasbiy kompetensiyaning murakkab, ko'p komponentli tuzilmasi sifatida talqin qilinadi.

Mazkur kompetensiyani shakllantirishning quyidagi metodik asoslari mavjud:



1-rasm. O'qish savodxonligiga oid kompetensiyalarni shakllantirishning metodik asosi

Mazkur kompetensiyani shakllantirishning birinchi metodik asosi kompetensiyaviy yo'naltirilganlik hisoblanadi. Chunki bo'lajak o'qituvchi tayyorgarligida asosiy e'tibor faqat nazariy bilimlarni egallashga emas, balki ushbu bilimlarni real pedagogik vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilishi zarur. Bu esa talabada matnni tanlash, savollar tizimini tuzish, topshiriqlarni differensiallashtirish, o'quvchilarning tushunish darajasini aniqlash va natijalarni tahlil qila olish ko'nikmalarini shakllantirishni talab etadi. Xorijiy tadqiqotlarda "pre-service teacherlarning o'z o'qish faoliyatida strategiyalardan foydalanishi ularning keyinchalik sinf amaliyotida ham samarali metodik qarorlar qabul qilishiga ta'sir ko'rsatishi aniqlangan"[3].

Ikkinchi metodik asos tizimlilik va izchillik tamoyilida namoyon bo'ladi. O'qish savodxonligini rivojlantirish kompetensiyasi bir martalik mashg'ulotlar yoki ayrim topshiriqlar orqali shakllanmaydi. U oliy pedagogik ta'lim jarayonida bosqichma-bosqich rivojlanadigan izchil metodik tayyorgarlikni talab qiladi. Dastlab talaba o'qish savodxonligining nazariy mohiyati, matn turlari va o'qib tushunish strategiyalarini o'zlashtiradi; keyingi bosqichda esa mazkur bilimlarni metodik faoliyatga ko'chirish, ya'ni dars loyihalash, topshiriq ishlab chiqish, matn asosida pedagogik vaziyatlarni modellashtirish bilan shug'ullanadi; yakuniy bosqichda esa pedagogik amaliyot va refleksiv tahlil orqali o'z kasbiy tayyorgarligini mustahkamlaydi.

Uchinchi metodik asos faoliyatga yo'naltirilganlikdir. Bo'lajak o'qituvchi metodik tavsiyalarni yodlab olish bilan emas, balki pedagogik faoliyatga yaqinlashtirilgan vazifalarni bajarish orqali kasbiy kompetensiyani egallaydi. Shu sababli tayyorgarlik jarayonida mikroo'qitish, matn tahlili, dars fragmentlarini ishlab chiqish, kuzatish va taqqoslash, metodik vaziyatlarni yechish, rolli o'yinlar va case-topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv bo'lajak o'qituvchining metodik tafakkurini faollashtiradi, uni real sinf

sharoitlariga tayyorlaydi va kasbiy qaror qabul qilish ko'nikmasini rivojlantiradi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ham savodxonlik bo'yicha o'qituvchi tayyorlashda tajriba va amaliy faoliyatning markaziy o'rni alohida ko'rsatilgan.

To'rtinchi metodik asos integrativlikdir. O'qish savodxonligi faqat ona tili yoki o'qish darslari bilan chegaralanmaydi. U barcha fanlarni o'zlashtirishning universal sharti bo'lib, matematik topshiriq shartini anglash, tabiiy fanlarga oid matnni talqin qilish, tarbiyaviy mazmundagi materiallardan xulosa chiqarish kabi ko'plab faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Shu bois bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini tayyorlashda o'qish savodxonligini fanlararo aloqadorlik asosida tashkil etish muhimdir. Bunday yondashuv kelajak o'qituvchisiga turli mazmundagi matnlar bilan ishlashni metodik jihatdan boshqarish imkonini beradi.



Beshinchi metodik asos refleksivlikdir. Bo'lajak o'qituvchi faqat o'qitish metodlarini qo'llashni emas, balki ularning natijadorligini tahlil qilishni ham bilishi zarur. Shu bois metodik tayyorgarlik jarayonida o'z dars ishlanmalarini tahlil qilish, o'quvchilarning xatolarini aniqlash, baholash natijalarini sharhlash va keyingi metodik qadamlarni belgilash kabi refleksiv faoliyatlarga keng o'rin berilishi lozim. O'qituvchi tayyorlash bo'yicha ilmiy manbalarda ham baholash savodxonligi va refleksiya metodik yetuklikning asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida baholanadi[4].

Mazkur kompetensiyani shakllantirishning metodik asoslari faqat yondashuvlar bilan emas, balki mazmuniy ta'minot bilan ham belgilanadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf

o'qituvchilarini tayyorlashda quyidagi mazmuniy yo'nalishlar alohida o'rin tutishi zarur: o'qish savodxonligining ilmiy mohiyati; matn turlari va ularning didaktik imkoniyatlari; o'qib tushunish strategiyalari; savol va topshiriq tuzish metodikasi; o'quvchilar yosh xususiyatlari; diagnostika va baholash mezonlari; raqamli va multimodal matnlar bilan ishlash asoslari. Mazkur mazmuniy birlik bo'lajak o'qituvchining nazariy bilimini amaliy-metodik kompetensiyaga aylantirish imkonini beradi.

Metodik asoslarning muhim tarkibiy qismi sifatida ta'lim shakllari, metodlari va vositalari ham ko'rib chiqilishi lozim. Bu borada ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot, mustaqil ta'lim, metodik workshop, pedagogik amaliyot, portfolioga asoslangan tahlil kabi shakllar samarali hisoblanadi. Metodlar tizimiga muammoli ta'lim, matnli tahlil, interfaol suhbat, klaster, insert, qiyoslash, refleksiv yozuv, case-metod, loyiha metodi va mikroo'qitish kiradi. Vositalar sifatida esa didaktik matnlar, topshiriqlar banki, baholash mezonlari, kuzatuv varaqalari, elektron resurslar va vizual sxemalardan foydalanish mumkin. Mazkur vositalarning uyg'unligi bo'lajak o'qituvchining metodik tayyorgarligini sezilarli kuchaytiradi. "Akyol va Ulusoy tadqiqotlari strategik o'qish faoliyatining bo'lajak o'qituvchilarda metodik qarorlar sifatiga ta'sirini ko'rsatgan"[3].

Shuningdek, metodik asoslar samaradorligi bir qator pedagogik shart-sharoitlar bilan ham belgilanadi. Ular qatoriga nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, matn bilan ishlashga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini yaratish, talabalarni faol subyekt sifatida jalb etish, refleksiv tahlil muhitini shakllantirish, pedagogik amaliyotni maxsus metodik vazifalar bilan boyitish va raqamli resurslardan maqsadli foydalanish kiradi. Ta'lim siyosatiga doir normativ hujjatlarda ham sifatli ta'limni tashkil etish, pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish va zamonaviy metodlarni joriy etish muhim vazifa sifatida qayd etilgan.

Mazkur kompetensiyani shakllantirishni bosqichli tashkil etish ilmiy-metodik jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Birinchi bosqich - nazariy-tahliliy bosqich bo'lib, unda talabalar o'qish savodxonligining mohiyati va metodik asoslarini o'zlashtiradilar.

Ikkinchi bosqich - metodik-amaliy bosqich bo'lib, bunda matn tanlash, topshiriq va savollar tuzish, dars

fragmentlarini ishlab chiqish, baholash vositalarini yaratish kabi faoliyatlar amalga oshiriladi.

Uchinchi bosqich - refleksiv-natijaviy bosqich bo'lib, unda pedagogik amaliyot materiallari, kuzatishlar, portfolio va o'z-o'zini tahlil qilish asosida talabaning metodik o'sishi baholanadi. Bunday bosqichlilik tayyorgarlikning izchilligi, amaliy yo'naltirilganligi va natijadorligini ta'minlaydi.

Shunday qilib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishning metodik asoslari kompleks xarakterga ega bo'lib, ular kompetensiyaviy, tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan, integrativ va refleksiv yondashuvlarga tayangan holda maqsad, mazmun, metod, vosita, shakl va natija birligida namoyon bo'ladi. Mazkur metodik asoslar bo'lajak o'qituvchining nafaqat nazariy tayyorgarligini, balki o'quvchilarda mazmunli o'qish, tushunish, tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga doir amaliy-metodik salohiyatini ham ta'minlaydi.

Xulosa. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishning metodik asoslari ta'lim jarayonining maqsadli, mazmuniy, tashkiliy va natijaviy komponentlarini yagona tizimda ko'rishni talab etadi. Mazkur kompetensiya bo'lajak pedagogning nazariy bilimlari, metodik ko'nikmalari, amaliy faoliyati va refleksiv tajribasi birligida shakllanadi. Shu sababli uni rivojlantirishda kompetensiyaviy, tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan, integrativ va refleksiv yondashuvlarga tayanish muhimdir.

Tadqiqot natijasida aniqlandiki, matn bilan ishlash strategiyalari, dars loyihalash, mikroo'qitish, diagnostik topshiriqlar ishlab chiqish, pedagogik amaliyot, raqamli resurslardan foydalanish va portfolioga asoslangan refleksiya mazkur kompetensiyani shakllantirishning eng samarali metodik vositalari hisoblanadi. Shuningdek, ushbu jarayonni nazariy-tahliliy, metodik-amaliy va refleksiv-natijaviy bosqichlar asosida tashkil etish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini kuchaytiradi. Demak, o'qish savodxonligini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishning metodik asoslarini ilmiy asosda ishlab chiqish va oliy pedagogik ta'lim jarayoniga joriy etish boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" Qonuni, 23.09.2020-yil, O'RQ-637-son. <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. Жданова Н.М., Тютюева И.А., Манакова А.В. Проблемы формирования читательской грамотности будущих учителей начальных классов и траектория их преодоления // Педагогическое образование в России. 2024. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-formirovaniya-chitatelskoy-gramotnosti-buduschih-uchiteley-nachalnyh-klassov-i-traektoriya-ih-preodoleniya>
3. Hayati Akyol, Mustafa Ulusoy. Pre-service teachers' use of reading strategies in their own readings and future classrooms. Teaching and Teacher Education (ScienceDirect), Volume 26, Issue 4, May 2010, Pages 878-884. <https://doi.org/10.1016/j.tate.2009.10.026>
4. Тумашева О.В. Готовность будущего учителя к формированию функциональной грамотности обучающихся // Вестник Мининского университета. 2021. №3 (36). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/gotovnost-buduschego-uchitelya-k-formirovaniyu-funktionalnoy-gramotnosti-obuchayuschihsya>
5. Hasanova S.K. Ona tili va o'qish darslarida pirls hikoyalaridan foydalanish orqali xalqaro baholash dasturiga tayyorgarlik ko'rishning metodik shartlari // Экономика и социум. 2024. №5-1 (120). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ona-tili-va-o-qish-darslarida-pirls-hikoyalaridan-foydalanish-orqali-xalqaro-baholash-dasturiga-tayyorgarlik-ko-rishning-metodik>
6. Ahmadaliyeva G.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini pirls xalqaro baholash nazoratiga tayyorlash metodikasi // Inter education & global study. 2025. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-sinf-o-quvchilarini-pirls-xalqaro-baholash-nazoratiga-tayyorlash-metodikasi>
7. Saidova G.E., Itolmasova O.S. Boshlang'ich ta'limda xalqaro baholash talablariga mos o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish // Экономика и социум. 2026. №1-2 (140). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-ta-limda-xalqaro-baholash-talablariga-mos-o-quv-topshiriqlarini-ishlab-chiqish>
8. Choriyeva V.A. PIRLS testlarida qo'llaniladigan matn tahlili, ochiq va yopiq savollar asosida nutqiy ko'nikmalarni oshirish metodikasi. // Inter education & global study. 2025. №10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/pirls-testlarida-qo-llaniladigan-matn-tahlili-ochiq-va-yopiq-savollar-asosida-nutqiy-ko-nikmalarni-oshirish-metodikasi>
9. Mirzoyeva M. Boshlang'ich sinf "o'qish savodxonligi" darslarida o'quvchilarda kommunikativlik qobiliyatini rivojlantirish metodikasi. Science shineinternational scientific journal, 9(44), May 2025. <https://inlibrary.uz/index.php/science-shine/article/view/98868>